

- U yerga faqat ayollar boradi, senga nima bor, yer yutkur, - dedi onam uyning pastak eshididan ayvonga chiqarkan, o'dag'aylab. Men esa hali kiyib ulgurmagan bir poy etikchamni qo'limga olib, momomning ortiga qochib o'tdim. Bu gal ham momom jonimga oro kirdi:

- Bu bir nonireza-da, bolam, qo'y, o'zi borib, o'zi keladi. It qo'rigan joyga o'ch degani shu-da. Onam to'ng'illagancha qulog'iga en solingen oq eshakni tandirning supasiga olib kelib to'g'riladi, momom eshakka qiyalmay mindi, meni esa onam qo'ltig'imdan olib, momomning ortiga o'tqazarkan, yolg'ondukam g'udranib qo'ydi: "Eshakka minishni bilmaydi-ku bu tilamishingiz".

Onamga qarab tirjaydim.

Eshak ilkis silkindi, men momomning kurtasidan mahkam ushlab oldim. Biz Oysuluvlarnikiga Bibiseshanbag'a jo'nadik. Ularning uyiga tutzor yoqalab boriladi, bir tomon tutzor, bir tomon paxtazor. O'rtadagi yolg'izoyoq yo'ldan yuvosh eshak bir zaylda odimlaydi. Yerga egilgan tut novdalari yurishga xalal beradi. Momom menga borganimizdan so'ng esligma bo'lib yurishimni ta'kidlab ketayotir, momomning har gapiga "hmm-hmm" deb qo'yamanu, xayolim esa borgach bo'ladigan o'yin - "urush-urush"da. Biz doim birga bo'lsa, "urush-urush" o'ynaymiz. O'yinni ikkiga bo'linib olib o'ynaymiz, bir tomon "sovetlar", bir tomon "afg'onlar" bo'ladi. Kim "sovet" bo'lsa xursand bo'ladi, chunki Oysuluvning akasi ham "sovet"-da. U hozir armiyada, oti Isroil aka. Oysuluv doim akasi haqida hikoya qilganda Sheralining ham, mening ham unga havasimiz kelib ketadi. Isroil aka dekabrning oxirlarida armiyadan kelar ekan, shunda Ergash aka katta ho'kiz so'yib to'y qilarmish. Isroil akaning uyoqda "tanka"si, Alek degan o'ris oshnasi bor emish...

* * *

Kuzning iliq kuni. Ko'kda mezon uchadi. Keng paxtazor adog'idagi devori loysuwoq uy Ergash akaniki. Uyning yonidan ko'kka tutun o'rlayapti - o'choq bo'lsa kerak.

Momom eshakning boshini tutariqqa burdi, jonivor asta oralay boshladi. Menimcha, u ham momomning tilini tushungandek tuyuladi, agar men haydaganimda ariqdan sakrab yuborgan bo'lardi.

- O'choqdan naryoqqa o'yna, momong kelyapti, tomog'ingdi bosadi hozir, - deya Zulfiya xola o'choq boshidan biz tomonga yura boshladi. Momom bu gal ham eshakdan tandir supasiga tushdi, men esa yerga sakradim. Momom avval Zulfiya xola bilan, so'ng bolalar bilan bir-bir ko'rishdi, meni esa Zulfiya xola qo'limdan tutib ko'risharkan: "Qani Tursunpolvon, katta yigit bo'lyapsizmi?", dedi. "Hmm" dedim va darhol bolalarga qo'shilib ketdim. Momom esa Zulfiya xola bilan uy tomonga yurdi.

* * *

Bugun biz olti kishi bo'ldik. Oysuluv bolalarni bo'lish uchun qo'lini orqasiga qilib tosh yashira boshladi, topgan "sovet", topmagan esa "afg'on". Tosh yashirish guruhlardagi bolalarning soni tenglashguncha davom etdi. Men, Oysuluv, Ikrom "afg'on" bo'lib qoldik, "sovetlar" esa Sherali, G'ayrat va Gavhar bo'ldi. Ular og'il tarafga ketdi, biz esa uy tarafga burildik. Qo'limizda yog'och to'poncha, eng zo'ri meniki, otam yasab bergen.

- Ago-on... ago-on... - og'il tarafdan Sheralining ovozi eshitildi. Men tandirning panasiga o'tib oldim. Shu payt og'il tomondan hushyor bo'lib kelayotgan Sherali ko'rindi.

- Ta-taat, Sherali, ta-taat o'lding... - deb baqirib yubordim. Sherali "voy" dedi-yu, go'ng uyumi tomon - pakkaga yura boshladi. Qoidaga ko'ra o'lganlar pakkaga chiqib turadi.

- Ta-taat, Ikrom, ta-taat, o'lding Ikrom... - Gavharning ovozi eshitildi. Ikki kishiga ikki kishi qoldi - o'zin qizib ketdi.

* * *

Kun tushga yaqinlashib qolgandi. Uyning yonboshidan Zulfiya xolaning "Oysuluv" degan ovozi eshitildi, keyin esa o'zi ko'rindi.

- Oysuluv, buyoqqa kel qizim, manovi ovqatni Saltanat xolangga berib kel, - dedi Zulfiya xola.

Oysuluv menga: "Yur, Tursun, berib kelaylik", dedi. Men bosh irg'agancha unga ergashdim. Saltanat xola yaqinda farzandli bo'lgan, hali "chillali", shuning uchun ko'pchilikka aralasholmaydi. Oysuluv ikkalamiz ro'molga tugilgan non va uznakdag'i ovqatni olib yo'lga tushdik.

* * *

Oysuluvlarnikiga qaytganimizda uyning oldida hech kim ko'rinxasdi. "Hamma ovqatlanishga kirib ketibdi", deb o'yladim.

Oysuluvlarning o'zları yashaydigan uyda ayollar o'tirishgan ekan, biz to'g'ri shu uyga kirdik. Ular ovqatlanib bo'lismagan ekan. Olti-etti ayol aylana bo'lib o'tiribdi, o'rtada katta un suprasi yozig'liq. To'rdan esa momom joy olgan.

- Keldilaringma? - dedi Zulfiya xola, - o'tiringlar shu yerga, ovqat olib kelaman, - Zulfiya xola shunday deb o'rnidan qo'zg'aldi.

- Ulbachchaga nima bor bu yerda, naryoqda ber ovqatini, - dedi momomning yonida o'tirgan ayol. Bu Sheralining onasi Xadicha xola edi. Bu gapga Zulfiya xola e'tiroz bildirdi:

- Ulbachchaligi borma hali buning, o'tirabersin shu yerda.

Ayollar bu gapga kulishdi. "O'tir, Tursunjon, o'tir", dedi momom.

Burchakka o'tirdik. Oygul ikkita kosada ovqat olib kirdi. Oygul Oysuluvning opasi, u dalaga ketmoqchi shekilli, egnida o'g'il bolalar kiyadigan yo'l-yo'l yengli kuylak.

Ovqat yerkanniz, ayollarning harakatiga qiziqib qarab o'tirardik. To'nda momom, qo'liga paxta tutamlarini olib supranging o'rtarog'ida turgan kattaligi piyoladay keladigan oqtoshning ustiga qo'yayapti. Bu tosh momomning chiltonotoshi. Toshning ikki tomoni biroz qoraygan. Momom paxtani eshib qo'yarkan, menga avval ham aytib bergan "Yetim qiz" matalini aytayapti. Momom gapdan to'xtaganda ayollar gap qo'shib qo'yadi:

- Hmm, tovba...

- Xudoyimning g'aznasi keng-da...

Ayollarning qo'lida chigit olinmagan paxta, ular paxta chigitlab o'tirishibdi. Bu orada chala-chulpa ovqatlanib, ayvonga chiqdik. Ergash aka oftobada qo'lini yuvayotgan ekan. U menga qarab: "Ha, Tursuntoy, qachon ot bo'lasan?" dedi. Men esa "Men toy emasman", dedim.

Bolalar o'yinni boshlab yuborishgan ekan, bizni ko'rib "Qaytadan boshlaymiz", deyishdi chuvillashib. Biz yana "afg'on" bo'lib qoldik. Odatdagidek, uy tomonga yo'l oldik. Oysuluv tandirning panasiga berkindi, men esa ayvonga kirib bordim-da, o'rtadagi

This is not registered version of TotalDocConverter
uyning usmiga qurilmadi. Bu yuzda surʼuning moshinaxtasi ekan.

Xonaning toʼrida yuzida katta oynasi bor ikki eshikli shkaf, uning yonida esa ikki qator qilib taxlangan koʼrpalar boʼlib, koʼrpa bilan shkaf oʼrtasidagi burchakda ozgina joy ochiq ekan. Men shu burchakka bordim-da, sekin orqam bilan kirib oʼtirib oldim. Burchak qorongʼi ekan. "Meni topolmay izlab kelsa, bu yerda koʼrmaydi", deb oʼyladim. Toʼpponcham qoʼlimda.

Shu payt tashqaridan yaqinlashib kelayotgan motosiklning ovozi eshitildi, ovoz uyga yaqinlashib oʼchdi va notanish erkakning "Ergash aka", degan tovushi eshitildi. Ayvondan esa Ergash akaning "Kelabering, mehmon, kelabering", degan javobi eshitildi.

Bir pasdan soʼng esa men oʼtirgan xonaning eshigi ochilib, Ergash akaning izidan baland boʼyli, ozgʼin kishi uyga kirdi. Mehmonning qoʼlida toʼrt burchak shakldagi qora charm hamyon bor edi. Ularning izidan kirgan Oygul men oʼtirgan burchakdan oʼtib koʼrpalardan ikkitasini toʼshab chiqib ketdi. Ergash aka mehmon oʼtigach, yuziga fotiha tortdi va hol-ahvol soʼray boshladi. Mehmon menga orqa oʼgirib oʼtirar, hamyon esa mendan yarim metr narida, koʼrpaning ustida turardi.

* * *

Shu payt ayollar oʼtirgan uydan ularning kulgisi, keyin esa Zulfiya xolaning "Koʼryapman, koʼryapman", degan ovozi eshitildi. Bundan tushundimki, Bibiseshanba oxirlabdi. Yaʼni Bibiseshanbaning oxirida uy egasi oʼrtadagi suprani boshiga qoʼyib olib uyni aylanib chiqadi, shunda uydagi boshqa ayollar undan "Nimani koʼryapsiz?", deb soʼrashadi. U esa koʼnglidagi barcha yaxshi niyatlarini aytib uyni aylanadi.

- Nimani koʼryapsiz, Zulfiyaboybich? - momomning ovozini tanidim. Bunga javoban Zulfiya xolaning ayvondan "Toʼy qilyapmiz-e, momosi, Oygulimdi uzatyapman", degan tovushi eshitildi. Zulfiya xolaning ovozi pasaydi, u ayvondan chiqib ketdi chamasi.

* * *

Mehmon bilan Ergash aka esa hamon yuzma-yuz oʼtirardi. Ergash akaning biroz xavotirli koʼzlari mehmonning ogʼzida. Mehmon goʼyo aybdor odamday yerga qarab gap boshladi:

- Ergash aka, men oblvojenkomatdanman. Termizga kecha keldim... - Mehmon bir toʼxtab oldi-da gapida yana davom etdi. - Kobulda edim shu hafta... Endi aka, Xudoning aytgani boʼlar ekan-da... Shunday boʼlib qoldi...
- Qanday boʼlib qoldi? - Ergash aka qariyb baqirib yubordi. - Isroil tinchmi ishqilib, nima boʼldi?
- Isroil... Isroil, - mehmon duduqlanib, koʼrpachaning ustida turgan hamyonni tezda ochdi-da, undan bir parcha qogʼoz oldi. Ergash aka qogʼozni mehmonning qoʼlidan yulib oldi va pichirlab oʼqiy boshladi. Men esa oʼtirgan joyimda nima gapligiga tushunmay oʼtirardim.

- Nimaga bunday boʼladi... nima-ag... - Ergash aka lablari titrab birdan yigʼlab yubordi va mehmonning yoqasidan ola ketdi. Kutilmagan bu harakatdan mehmon yonboshiga yiqilib tushayozdi. U Ergash akaning qoʼllaridan qutulishga harakat qilib, "Ergash aka, Ergash aka", derdi faqat. Oʼtirgan joyimda choʼchib tushdim. Ergash aka mehmonning yoqasidan qoʼlini olib, oʼzini gilamga tashladi. Uning yelkalari titrar, ovozi xirillardi: "Nima-ag...?"

- Isroil... Isroil mard yigit edi... Vatan uchun mardlarcha halok boʼldi... - Mehmon boshi egilgan kuyi gapirardi. Ovozining titrashidan u ham yigʼlayotganga oʼxshardi. Ergash aka gilamdan boshini koʼtardi, uning bitta-yarimta oq oralagan moʼyovlari ham koʼzyoshidan hoʼl boʼlgandi.

- E-e, shu... onasini... - uning yigʼi aralash ovozi biroz bosilganday tuyuldi menga. Xonaga bir zum ogʼir jimlik choʼkdi. Shu mahal uyning orqa tomonidagi derazadan boshiga supra qoʼygan Zulfiya xola koʼrindi. U toʼxtab-toʼxtab, baland ovozda oʼziga-oʼzi gapirardi. Uning koʼzlari juda uzoqlarga qadalgandi.

- Isroilimdi koʼryapman, koʼrayapman, yuzlari oyday boʼp kelayapti. Isroilimga kelin tushirayapman, kelinimning... - Zulfiya xolaning ovozi pasaydi, uyni aylanib ketdi.

Mening esa uydan yugurib chiqqim keldi shu topda.

- Enasi eshitmasin, enasi, - Ergash aka koʼzlarini artarkan qiynalib oʼrnidan turdi. Mehmon ham oʼrnidan qoʼzgʼoldi. Gilamning ustida esa haligi qogʼoz gʼijim boʼlib yotardi.

- Ergash aka... endi peshonasida bor ekan-da. Ertaga soat 12 da Termizga... - gapning davomini eshitmay tashqariga otildim, eshikka yetganda qoʼlida dasturxon va tarvuz koʼtargan Oygulga urilib ketdim.

Ayollar ham tashqariga chiqayotgan ekan, momom esa Zulfiya xola jilovidan tutib turgan eshagimizga minayotibdi. Yugurib ayvondan chiqarkanman, ogʼil tomonidan kelayotgan Sheralining "Ta-taat, Tursun, oʼlding, urra afgʼonlar yengildi", degan hayqirigʼi eshitildi. Men esa momom tomonga parishon borarkanman, birdan baqirib yigʼlab yubordim. Ayvondan esa Ergash akaning baland, lekin titroq ovozi eshitildi.

- Toʼxtat urush-urushingni, ikkinchi oʼynaganiningni koʼrmayin.

Zulfiya xola esa meni eshakka mindirarkan, hadeb ovutardi:

- Yigʼlama Tursunjon, yigʼlama, oʼyinda yigʼlagan kal boʼladi...